

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH

VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI 2- TILLAR, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA  
KAFEDRASI

**Dorishunoslik atamasi (Farmatsevtik atamashunoslik)**

**LOTIN TILI VA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASI FANIDAN O'QUV USLUBIY  
QO'LLANMA.**

TOSHKENT - 2008

### **Dorishunoslik atamasi (Farmatsevtik atamashunoslik)**

Dorishunoslik atamasi dori formalaridan ( xab dori, malham eritma va boshqalar), dorivor o'simliklardan ( valeriana, marvaridgul va boshqalar ), hayvonot va o'suvchi o'simliklar (ildiz,barg,o't,yog' va boshqalar ) hamda kimyoviy nomenklaturalar ( nikotin kislotasi, rux oksidi va boshqalar) dan iborat.

Dorivor moddaning lotincha nomi shifokor tomonidan retsept yozilganida ishlatiladi. Hamma dori moddalari otlardan iborat bo'lib, ular II - turlanish sr. rodga tegishli ; streptotsid — Streptocidum, i,n .

**Eslab qoS !** Retseptura ( praktikasida ) amaliyotida chet el preparatlari lotinlashtiriladi ya'ni shartli um, i,n qoshimchasini oladi .

#### **Nom. Cordox (um) \_ Gen.Cordoxi**

Dori moddalarida bir qancha nomlanishlari bor . Bu nomlanishlar orqali dorining anatomik, fiziologik, terapevtik xarakterini bilib olish mumkin. Bular dori nomlanishida qo'llaniladigan so'z yasovchi qo'shimchalardir.

| Lotincha        | Ma'nosi                                                      | Lotincha          | Ma'nosi                                 |
|-----------------|--------------------------------------------------------------|-------------------|-----------------------------------------|
| Cor,card        | Yurak tomirini kengaytiruvchi                                | Chol.bil          | O't haydovchi                           |
| Vas, angi       | Tomir kengaytiruvchi                                         | lo                | Yodli tarkib                            |
| Dol,alg         | Og'riq qoldiruvchi                                           | Ur                | Siydik haydovchi                        |
| Pres (s) ten(s) | Qon bosimini tushiruvchi                                     | As                | Fermentli                               |
| Test, andr, vir | Androgenli                                                   | Vit               | Vitaminli                               |
| Oestr , estr    | Esterogenli                                                  | Lax               | Ich yurgazuvchi                         |
| Sept            | Zararsizlantirish                                            | Ap (is)           | Ari zahrining mahsuloti                 |
| Pyr             | Issiqni tushuruvchi                                          | Vip (e) r         | lion zahrining mahsuloti                |
| Aesthes         | Og'riq qoldiruvchi                                           | Cid               | Mikrobga qarshi                         |
| Cain            | Joydagi og'riqni qoldiruvchi                                 | Thyr              | Qalqonsimon bezga ta'sir qiluvchi modda |
| Cillin          | Antibiotik-penitsillin                                       | Sed, stress atrax | Tinchlantiruvchi                        |
| Myc (in)        | Zamburug'ga qarshi antibiotik                                | Cyclin            | Antibiotik-tetratsiklin                 |
| Cort Barb       | Kortikosteroidlar , buyrak usti bezi uchun garmon Uxlatuvchi | Sulfa             | i Sul'fanilamidlar                      |

Eslab QoS ! Organizmga o'xshash ta'sir qiluvchi dorilar quyidagi sinflarga bo'linadi :

| Lotincha         | Ma'nosi                                                                 |
|------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| Anaesthesia      | Og'riqsizlantiruvchi                                                    |
| Analgetica       | Og'riq qoldiruvchi                                                      |
| Analeptica       | Jonlatiruvchi                                                           |
| Anthelmintica    | Gijjaga qarshi                                                          |
| Antiasthmatica   | Nafas qisishiga qarshi                                                  |
| Antiseptica      | Chirishga qarshi                                                        |
| Cardiaca         | Yurakka tegishli .                                                      |
| Cholagoga        | O't ( safro haydovchi )                                                 |
| Diuretica        | Siydik haydovchi                                                        |
| Fungicida        | Zamburug'ga qarshi                                                      |
| Haemostatica     | Qon to'xtatuvchi                                                        |
| Heroica          | Qattiq ta'sir qiluvchi                                                  |
| Hypotensiva      | Bosim tushiruvchi                                                       |
| Purgativa        | Ich suradigan                                                           |
| Laxativa         | Ich suradigan                                                           |
| Sedativa         | Tinchlantiruvchi                                                        |
| Tranquil isantia | Markaziy nerv sistemaasini tinchlantiruvchi, qo'rquvni yo'qotish uchun. |

|                             |                                                |
|-----------------------------|------------------------------------------------|
| Ma'noli so'zyas kimyoviy no | avchi qo'shimchalarning mlanishi quyidagicha : |
| Hydr                        | Suv                                            |
| Oxy                         | Kislorod                                       |
| Meth                        | Metil gruppasi                                 |
| Aeth                        | Etil gruppasi                                  |
| Phen                        | Fenil gruppasi                                 |
| Benz                        | Benzol gruppasi                                |
| Thi                         | Oltingugurt                                    |
| Phthor<br>[                 | Ftor                                           |
| Az, zol, a (zin), a (zid)   | Azot                                           |

Eslab qol I I. «as» = «az» fermentni ko'rsatadi. Lidasum, lipasum. 2. «zin» va «zol» boshqa ma'noni ham bildiradi.

**Anaesthesinum, Anusolum.**

**MASHQLAR:**

**1. So'z tarkibidagi tanish so'z yasovchi qo'shimchaSarni toping va ularning ma'nosini tushuntirib bering**

- a) Heparinum, Gonadotropinum, Corvalolum, Lidasum, Ultracainum, Amjcazolum, Oestronum, Bicillinum, Donalgin, Netromycin, Biseptol, Sulfacillinum, Oligovitum, Vasonit, Oxadol, Testoenatum, Thyraminum;
- b) Phthorocort, Baralgin, Cordox, Cardiovalenum, KetaSginum, Testosteron, Depressan , Cortisonum, Norsulfazolum.

Barbitalum, Seduxen, Antipyrinum, Allocholum, Thiaminum, Urotopinum, Acetolax, Hendevitum, Apilacum, Viprosanum, Thyraminum, Mycozoral. 2. **Terminlarni gruppalariga bo'ling :**

- a) antibiotik - penitsillin
- b) antibiotik - tetratsiklin
- v) antibiotik - zamburug'ga qarshi.

- 1 . Tetracyclinum
2. Ampicillinum
3. Neomycinum
4. Bicillinum
5. Lincomycinum
6. Methacyclinum
7. Oxacillinum
8. Monomycinum
9. Phenoxyethylpenicillinum
10. Laevomycetinum
- 11 . М о ф Б о с у с Н п и т 12. Methicillinum - natrium.

## **DORI FORMALARI**

Tayyor dori **dori formasi** deyiladi . Dori formalari offitsinal yoki standart va magistral bo'ladi. ( Lotin tilidan officina - dorixona ); (Lotin tilidan magister - o'qituvchi). Maxsus standart asosida fabrika va zavodlarda offitsinal dori - darmonlar tayyorlanadi. Magistral dorilarni dorixonalarda shifokor retsepti bilan tayyorlashadi.

### **Quydagi dori formalari mavjud:**

Qattiq dori formalari. kukunlar - **pulveres** (pulvis, eris, m) donadorlar - **granula** (granulum, i, n drajelar - **dragee** tabletkalar - **tabulettae** (tabuletta, ae, f)

xab dorilar — pilulae (pilula, ae, f)

dorivor o't yig'masi - **species** (species, ei, f)

**Yumshoq dori formalari** : surtmalar — **unguenta** (unguentum, i, n) suyuq mazlar - **linimenta** (linimentum, i, n) malhamlar - **emplastra** (emplastrum, i, n) pastalar - **pastae** (pasta, ae, f) shamchalar - **suppositoria** (suppositorium, i, n)

### SUYUQ DORI FORMALARI :

eritmalar - **solutions** (solution, onis, f) tomchilar — **guttae** (gutta, ae, f) suspenziyalar - **suspensions** (suspension, onis, f) emul'siyalar - **emulsa** (emulsum, i, n) tindirma — **tincturae** (tincture, ae, f) damlamalar — **infusa** (infusum, i, n) qaynatmalar - **decocta** (decoctum, i, n) ekstraktlar — **extracta** (extractum, i, n) miksturalar - **mixturae** (mixture, ae, f) sharbatlar — **sirupi** (sirupus, i, m) shiralar — **succi** (succus, i, m) yog'lar — **olea** (oleum, i, n)

### Farmatsevtik (dori) termin tuzilishi.

Farmatsevtik termin quyidagicha tuziladi.

- 1 . Dori formasi. Bosh kelishikda nima ? so'rog'iga javob bo'ladi
2. Dori moddasi. Qaratqich kelishikda nimaning ? so'rog'iga javob bo'ladi
3. Aniqllovchi : dori formasini yoki dori moddasini qiyoslovchi aniqllovchi qanday yoki qandayning ? so'rog'iga javob bo'ladi.

**Misol :** Novokain eritmasi - **solutio Novocaini**. Kamforaning yog'li eritmasi - **Solutio Camphorae oleosa**. Streptotsidning oq kukuni - **Pulvis Streptocidi albi**.

EsJab Qol ! 1. Qo'shtirnoq ichiga olib yozilgan dori moddasi bosh kelishikda yozildi.

«Pentalgin» tabletkalari - **Tabulettae «Pentalginum»** «Undectin»surtmasi — **Unguentum "Undecinum"**.

2. Termin o'rtasidagi dori moddalari, o'simliklar, kimyoviy elementlarbosh harf bilan yoziladi .

## **MASHQ**

### **Lotin tiliga tarjima qiling.**

- 1 . Tog' jumrutning suyuq ekstrakti
  2. Valeriananing nastoykasi
  3. Bromkamforaning tabletkalari
  4. Arslon quyruq o'tining qaynatmasi
  5. Sanoning murakkab damlamasi
  6. Usti qobiq bilan o'ralgan tetratsiklinning tabletkalari
  7. Vazelinningyog'i
  8. Narko'z uchun efir
  9. Qizil miyya ekstraktli eliksir (elixir, iris , n)
- 10.Eruvchan oq Streptotsidning eritmasi
- 11 .Qin uchun shamchalar «Osarbon»
  - 12.Bahorgi Adonis o'tining damlamasi
  - 13.Sintomitisuing suyuq surtmasi
  - 14.1nyeksiya uchun ampuladagi stianokobalamin eritmasi.

## LUG'OT

Herba, ae , f-o't  
Folium, i , n - barg  
Radix, icis , f- ildiz  
Frangula, ae , f - tog' jumrut  
Valeriana, ae , f — valeriana  
Leonurus, i , m — arslon quyruq  
Convallaria, ae , f- marvarid gul  
Glycyrrhiza, ae , f — qizil miya  
Senna, ae , f- sano  
Adonis (idis) vernalis (is) - bahorgi Adonis  
Synthomycinum i , n - sintomitsin  
Sulfacylum, i, n — sul'fatsil  
Bromcamphora, ae , f — bromkamfora  
Tetracyclinum, i , n — tetratsiklin  
Aqua, ae , f- suv  
Fluidus, a , um — suyuq  
Solubilis, e — eruvchan  
Compositus, a , um - murakkab  
Destillatus, a , um — distillangan  
In capsules — kapsulada  
In ampullis — ampulada  
In tabulttis - tabletkada  
Pro injectionibus - inyeksiya uchun  
Pro infantibus - bola uchun  
Pro narcosi - narkoz uchun  
Cum extrecto - ekstrakt bilan  
Cum radicibus — ildizi bilan  
Vaginal is, e - qinga oid  
Aether, eris , m - efir  
Vaselinum, i, n - vazelin  
Obductus, a , um - parda bilan qoplangan

## RETSEPT

**Retsept** — shifokorning dorixonaga yozma murojati bo'lib, bunda kasal uchun dori formalarini tayyorlab yoki tayyor holatidagi dorini qanday ichish kerakligi haqidagi ma'lumotni bilsa bo'ladi. Retsept 9 qismdan iborat:

- 1 . Poliklinika shtampi
2. Retsept yozilgan kun, oy, yil
3. Kasalning familiyasi , ismi
4. Yoshi
5. Vrachnmg familiyasi, ismi
6. Dori formolari va miqdori
7. Dori formalarining nomi
8. Dorini iste'mol qilish
9. Vrachning shaxsiy imzosi

6,7 va 8 punktning birinchi so'zi lotin tilida yoziladi.

Retseptning lotin qismi «Recipe» "Ol" so'zi bilan boshlanib, dori moddalari qaratqich kelishikda yoziladi .

**1 . Har bir dori moddasi xat boshidan boshlanib bosh harf bilan yoziladi.**

Recipe: Tincturae Valerianae Extract! Belladonnae

**2. Har qatorning o'Ichovi yoziladi : qattiq va yoyilib ketuvchan dori formolari arab soni bilan belgilanadi.**

1,0-1 gramm

0,0001 -- 1 dectimilligramm

0,1 - 1 dectigramm 0,0000- 1 santimilligramm 0,01 - 1 santigramm 0,00000 - 1 mikrogramm

Suyuq dori formolari millimetrd va tomchilarda (ba'zida garmmda )

belgilanadi . Tomchilar Rim raqamida belgilanadi .

Recipe: Tincturae Valerianae 30 ml Recipe: Olei Menthae quttas III

Biologik birliklar arab sonlarida bo'ladi. Recipe: Penicillini 1000000 ED

**3. Agar bir qancha dori formalarining dozasi bir xil bo'lsa, oxirgi qatorda bir marta ana (aa) so'zidan keyin son yoziladi.**

Recipe: Tincturae Valerianae

Tincturae Convallariae ana 7,5

**4. Retseptning lotin qismi quyidagi so'z bilan tugaydi :**

**Misce. Da. Signa. — Aralashtir. Ber. Belgila** yoki

**Misceatur. Detur. Signetur- Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.** Keyin kasal uchun kerak bo'lgan tilda dorini qanday iste'mol qilish yoziladi.

Masalan: 1 tabletkadan 3 mahal Quyidagi ibora va retseptura so'zlarini yod.oling: Sterilisa ! (Sterilisetur!) Sterilizatsyala ! (Sterilizatsiya qilinsin)

**Repete ! (Repetatur!)** Qaytar! (Qaytarilsin!)

**Misce,fiat...** Aralashtir, hosil bo'lsin.

**Da (Dentur) tales doses numero 10** - shunday dozalarni 10 (son) berilgan bo'lsin .

**Cito !** - Tez !

**Citissime !** - Tezroq !

**Statim !** - Darhol !

**Ex tempore !** — Talab qilinishi bilan !

**Lege aris !** - San'at qonuni bo'yicha !

**Pro auctore !** - Avtor uchun !

**Ad usum internum** — ichish uchun; ishga ishlatish uchun

**Ad usum externum** — sirtga ishlatish uchun

**Per rectum** - to'g'ri ichak orqali

**Per os** — og'iz orqali

**Contra tussim** - yo'talga qarshi

**Ad** - gacha

**Tabletkalar, shamchalar va ko'z plyonkalarini retsepturada yozilishi.**

Tabletkalar, shamchalar, ko'z plyonkalari - bu tayyor dori moddalaridir. Shuning uchun ular Accusativusda yoziladi (ular dozadan emas, «Recipe » so'zidan bog'liq bo'ladilar).

**1. Recipe: Tabulettas - (nimaning? Qanday?)**

(a. donning Qar.f) numero....

(b. preparatning trivial nomi qo'shtirnoq ichida (Nom. Sing.)

**2. RpiSuppositoria (nima?) cum (nima bilan?)**

1 . Dorining nomi va dozasi - Abl. Sing.

2. Preparatning trival nomi «qo'shtirnoq ichida « Nom Sing ».

**Recipe : Lamellas ophthalmicas cum..numero MisoHar :**

Recipe : Tabulettas Monomycini 0,25 numero 50

Recipe : Tabulettas «Theodibaverinum» numero 12

Recipe : Suppositoria cum extracto Belladonnae 0,015 numero

Recipe : Suppositoria «Anaesthesolum» numero 20 Recipe : Lamellas ophthalmicas cum Floreno numero 30

**Eslab Qol!** Retsepturada dorivor o'tlar yig'masi ko'plik formasida bo'ladi.

Species, erum,f Misce, fiant species. Aralashtir, dorivor yig'malar hosil bo'lsin. Species antiasthmaticae — istmaga qarshi yig'ma Species diureticae - siydik haydovchi yig'ma Species pectorales - ko'krak yig'masi Species cholagogae - o'tni haydovchi yig'ma Species laxantes — ich suradigan yig'ma Species sedativae - tinchlantiruvchi yig'ma Species diaphoreticae — ter haydovchi yig'ma Species stomachicae — meda uchun yig'ma

## **MASHQLAR:**

### **1 . Ol: Belladonna nastoykasidan 10 ml.**

Ber: 5 tomchidan 1 kunda 2-3 mahal.

### **2. Ol: Marvaridgul naskoykasidan Valeriana nastoykasidan miqdorda 15 mldan.**

Aralashtir. Ber.

Belgila: 20 tomchidan 1 kunda 3 mahal.

### **3. Ol: Aloe tabletkalaridan 20 son.**

Ber.

Belgila: Kuniga bir shag'amdan.

### **4. Ol: Kordigitli shag'amchalardan 0,0012 10**

Ber.

Belgila: kuniga 1 shag'amdan.

### **5. Ol: «Pentalgin» tabletkalaridan 50 son.**

Ber.

Belgila: kuniga katta qoshiqda 2 mahal.

### **6. Ol: Sano barglarining damlamasidan 10,0-150 ml.**

Rovoch sharbatidan 30 ml.

Aralashtir. Ber.

Belgila: Ertalab 1 mahal katta qoshiqda.

### **7. Ol: Kanakunjit yog'ining emulsiyasidan 180,0**

Shakarli sharbatdan 200,0 gacha.

Aralashtir. Ber.

Belgila: Har soatda 2 ta katta qoshiqda.

### **8. Ol: Penitsillin surtmasidan 10,0.**

Ber.Belgila:Surtish uchun.

### **9. Ol: Fenoldan 0,5**

Glitserindan 10 ml.

Aralashtir. Ber.

Belgila: Quloq uchun tomchilar. **10.O1: "Betiol" shamchalaridan 10.**

Ber.Belgila.

Kechquran uchun 1 shag'amda. **11.O1: Novshdil-Arpabodiyonli**

**tomchilardan 50**

**ml.**

Alteyning sharbatidan 30,0

Distillangan suvdan 200ml.gacha

Aralashtiri: Ber

Belgila: Kuniga katta qoshiqda 3 mahal. **12.O1: Ko'z plyonkalarini**

**florenal bilan 30 son.**

Ber. Belgila:

**13. OI: Etil spirtidan 95 % - 20 ml.**

Inyektsiya uchun suvdan 10 ml. Belgilang: 10 ml.dan venaga.

**14. OI: Nitroglitserinning yog'li eritmasidan 1 % -**

**0,00015 20 (son) shunday dozalarda kapsulada berilsin.**

Belgila: 1 kapsuladan til ostiga.

**15. OI: 25 (son) qobig'iga o'ralgan nistatinli Tetratsiklin  
tabletkalaridan .**

Ber. Belgila. Kuniga 1 tabletkadan 3 mahal.

**16. OI: Tog' jumrut po'stlog'idan 30,0**

Chaynov o'tning barglaridan 20,0 Bo'ymadoron o'tidan 10,0 Aralashtiring hosil bo'lsin yig'ma. Ber.  
Belgila.

**Lug'at.**

Belladonna, ae, f - belladonna

Aloeo, yos, f - aloeo

Althaea, ae, f - alteo

Millefolium, i, n - bo'yimardon

Urtica, ae, f - chayon o't (qichitqi)

Oleosus, a, um - yog'li

Spirituosus, a, um - spirtli

Aethylicus, a, um - etilli

Convallaria, ae, f - marvaridgul

Glycerinum, i, n - glitserin

Liquor (oris) Ammonii anisatus (i), Hovshadil - Arpabodiyon tomchilari.

Solution (onis) Ammonii caustici, - Novshadil spirit

Oleum (i) Ricini - kanakunjut yog'i

Oleum (i) persicorum - shaftoli yog'i

Phenolum, i, n - fenol

Bethiolum, i, n - betiol

Saccharum, i, n - shakar

Rheum, i, n - ravoch

Quantum satis - qancha kerak bo'lsa Cortex, icis, m - po'stloq

## RETSEPTURADA KIMYOVIY NOMENKLATURA 1. KIMYOVIY ELEMENTLAR.

Kimyoviy elementlar lotin tilida otlar bo'lib, H-turlanish sr.rodga kiradi. Faqatgina elementlardan oltingugurt **Sulfur, uris, n** va fosfor **Phosphorus, i, m**, bu qoidaga bo'ysunmaydi.

### KIMYOVIY ELEMENTLARNING NOMLANISHI.

| Lot.nomi    | Simvol | O'zb.nomi | Lot.nomi    | Simvol. | O'zb.nomi   |
|-------------|--------|-----------|-------------|---------|-------------|
| Aluminum    | Al     | Alyuminiy | Hydrogenium | H       | Vodorod     |
| Argentum    | Ag     | Kumush    | Iodum       | J       | Yod         |
| Arsenicum   | As     | Mish'yak  | Kalium      | K       | Kaliy       |
| Aurum       | Au     | Tilla     | Lithium     | L       | Litiy       |
| Barium      | Ba     | Bariy     | Magnium     | Mg      | Magniy      |
| Bismuthum   | Bi     | Vismut    | Natrium     | Na      | Natriy      |
| Borum       | B      | Bor       | Nitrogenium | N       | Azot        |
| Bromum      | Br     | Brom      | Oxygenium   | O       | Kislorod    |
| Calcium     | Ca     | Kal'siy   | Phosphorus  | Ph      | Fosfor      |
| Carboneum   | C      | Uglerod   | Plumbum     | Pb      | Qo'rg'oshin |
| Chlorum     | Cl     | Xlor      | Silicium    | Si      | Kremniy     |
| Cuprum      | Cu     | Mis       | Sulfur      | S       | Oltingugurt |
| Ferrum      | Fe     | Temir     | Thallium    | Tl      | Talmit      |
| Fluorum     | F      | Ftor      | Zincum      | Zn      | Rux         |
| Hydrargyrum | Hg     | Simob     |             |         |             |

## 2. OKSIDLARNING NOMLANISHI.

*Oksidlarning nomi 2 ta ot dan iborat.*

- 1 . Element Qaratqich kelishikda .
2. Oksid (peroksid, gidroksid) bosh kelishikda.

CaO Kalsiyning oksidi. Calcii oxydum. tkCb vadarodning peroksidi -Hydrogenii peroxydum.

## 3. KISLOTALARNING NOMLANISHI.

Kislotalar nomi **Acidum**, i, n bo'lib u ot va moslashgan sifatdan hosil bo'ladi.

**Acidum lacticum** — sut kislotasi.

Tarkibida kislorod miqdori ko'p bo'lgan kislotalar - «icum»

qo'shimchasi orqali yasaladi:

**Acidum sulfuricum** - oltingugurt kislotasi.

**Acidum nitricum** - azot kislotasi.

Tarkibida kislorod miqdori kam bo'lgan kislotalar «osum»

qo'shimchasi orqali yasaladi.

**Acidum sulfurosum** - oltingugurt kislotasi. Tarkibida kislorod moddasi bo'lmagan kislotalar **hydro** - old qo'shimchasini qo'yish bilan yasaladi:

**Acidum hydrochloricum** - vodorod xlorid.

**Ba'zi kislotalarning nomi.**

Acidum aceticum - sirka kislota

Acidum ascorbinicum - askorbinat kislota

Acidum benzoicum - benzoat kislota

Acidum boricum - borat kislota

Acidum citricum - limon kislota

Acidum carbolicum - karbolat kislota

Acidum carbonicum - ko'mir kislota

Acidum folicum - folat kislota

Acidum glutaminicum - glutamine kislota

Acidum lacticum - sut kislotasi

Acidum nicotinicum - nikotin kislota

Acidum salicylicum - salitsilat kislota

Acidum arsenicum - margimush kislota

Acidum nitrosum - azot kislota

Acidum sulfuricum - oltingugurt kislota

Acidum sulfurosum - oltingugurt kislota

Acidum hydrochloricum - xlorid kislota

Acidum hydrobromicum - bromide kislota

Acidum hydroiodicum - yod kislota .

#### **4. TUZLARNING NOMLANISHI.**

Tuz termini 2 ta otdan iborat bo'lib, kation Qaratqich; anion Bosh kelishikda bo'ladi. Tarkibida kislorod bo'lgan kislotali tuzlarni ifodalovchi anionlar «-as, -is, -idum» qo'shimchalari yordamida hosil bo'ladi. Kalii sulfat - kaliy sul'fat Kalii acetat - kaliy atsetat Natrii sulfas - natriy sul'fat Natrii sulfidum - natriy sul'fid .

### **Ko'p ishlatiladigan anionlar.**

Acetas, atis, m - actetat  
Arsenas, atis, m — arsenat  
Arsenis, itis, m - arsenit  
Benzoas, atis, m - benzoat  
Bromidum, i, n - bromid  
Carbonas, atis, m - karbonat  
Citras, atis, m - sitrat  
Chloridum, i, n - xlorid  
Gluconas, atis, m - sitrat  
Chloridum, i, n - xlorid  
Gluconas, atis, m - glyukonat  
Glycerophosphas, atis, m - glitserofosfat  
Hydrocarbonas, anis, m - gidrokarbonat  
Hudrochloridum, i, n - gidroxlorid  
Iodidum, i, n - yodid  
Nitras, anis, m - nitrat  
Phosphas, aris, m - fosfat  
Subacetas, atis, m - asosli atsetat  
Subnitras, atis, m - asosli nitrat  
Sulfas, atis, m - sul'fat  
Salicylas, atis, m - salitsilat  
Subcarbonas, atis, m - tetraborat

#### **A) Lotin tilidan o'zbek tiliga tarjima qilin :**

Zinci oxydum 2. Magnesii peroxydum 3. Calcii hydroxydum . 4. Natrii sulfas 5. Barii sulfidum 6. Morphini hydrochloridum 7. Tabulettae Acidi arsenicosi obductae 8. Ferrum cum acido ascorbinico 9. Unguentum Hydrargyri album 10. Unguentum Acidi salicylici 11. Acidum ascorbinicum seu Vitaminum C. 12. Acidum sulfuricum concentratum. 13. Solutio Natrii chloridi composite. 14. Solution Methyleni coerulei spiritiosa .15.Liquor aluminii subacetatis.

**V ) O'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qiling.** Kaliy bromidning eritmasi. Natriy xloridning izotonik eritmasi. Natriyning sitrati inyeksiya uchun. Konsentratlangan sirka kislotasi. Qo'rg'oshinli murakkab malham. Aralashtirilgan oltingugurt kislotasi. Simobning sariq oksidi. Qobiqqa o'ralgan glutamin kislotasining tabletkalari. Salitsil kislotasining surtmasi. Ampuladagi Atropin sul'fatning eritmasi. Inyeksiya uchun testosterone propionatning yog'li eritmasi. Asosiy qo'rg'oshin atsetatining eritmasi.

**s) retseptlarni tarjima qiling.**

**1 . Ol: Sut kislotasidan 50 ml.**

Ber. Belgila. Sprinsovka qilish uchun.

**2. Ol: Riboflavindan 0,001**

Askorbin kislotasidan 0,2 Distirlangan suvdan 10 ml Aralashtir. Ber.  
Belgila. Ko'z tomchilari.

**3. Ol: Nikotin kislotasi tabletkalaridan 0,05**

Ber. Belgila: kuniga 1 tabletkadan 2 mahal.

**4. Ol: Qo'rg'oshinli suvdan**

Distillangan suvdan teng miqdorda 50 mldan

Bor kislotasidan 2,0

Aralashtir. Ber

Belgila: Chayqash uchun.

**5. Ol: Salitsil kislotasidan 1,0**

Rux oksididan

Bug'doy kraxmalidan teng miqdorda 12,5 dan

Sariq vazelindan 50,0 gacha

Aralashtir: pasta hosil bo'sin.

Ber. Belgila tashqi qavat uchun

**6. Ol: Temirli aloe Sharbatidan 100,0**

Ber. Belgila  $\frac{1}{n}$  stakan suvga №2 kichik qoshiqda.

**7. Ol: Natriy xloriddan 0,45**

Natriy gidrokarbonatdan

Kal'siy xloriddan teng miqdorda 0,1 dan

Glyukozadan 0,5

Inyeksiya uchun suvdan 500,0 ml.

Aralashtir. Sterilizatsiya qilinsin.

Ber. Belgila. Vena uchun.

**8. Ol: Kaliy arsenit suyuqligidan 5 ml.**

Achchiq yalpizning suvidan 20 ml. Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 10 tomchidan 3 mahal

**9. Ol: Tetratsiklin gidrokslorid tabletkalaridan 0,1 dan 30**

Ber. Belgila. Kuniga 2 tabletkadan 3 mahal.

**10. Ol: Tozalangan oltingugurtdan 0,3**

Shaftoli yog'idan 30,0 Aralashtiring. Sterilizatsiya qiling. Ber. Belgila. Inyeksiya uchun.

**11. Ol: Tezda! Oling. Natriy gidrokarbonat eritmasidan**

4% 20ml.

Shunday dozalarni 10 soni bilan ampulada. Ber. Belgila.

**12. Ol: Paraverin gidroksloridli shamchalardan 0,02 4 soni bilan.**

Ber. Belgila. Kuniga 1 ta shag'amchadan.

**13. Zudlik bilan! Ol! Kal'siy xlorid eritmasidan 10% 10ml dan.**

Ber. Shunday dozalarni 6 soni bilan ampulada. Belgila: 5 ml. dan venaga.

**14. Ol: Natriy tetraboratdan 2,0**

Xinin gidroksloriddan 1,5

Glitserindan 30,0

Aralashtir. Ber. Belgila. Tampon uchun.

**15. Ol: Spirtli yashil eritmasidan**

1%20ml. Berilgan. Belgila.

**Lug'at.**

Vulgaris, e - oddiy

Simplex, icis - oddiy

Concentratus, a, um - konsentratlashgan

Spirituosus, a, um - spirtli

Flavus, a, um - sariq

Dilutus, a, um - ajratilgan

Isotonicus, a, um - izotonik

Depuratus, a, um - tozalangan (oltingugurt)

Rectificatus, a, um - tozalangan (spirt)

Methylenum (i) coeruleum (i) - ko'k metilli

Riboflavinum i, n - riboflavin

Chininum, i, n - xinin  
 Viride (is) nitens (ntis) - zelyonka; yashil  
 Thymus, i, m - tog' jambil  
 Liquor, oris, m - suyuqlik  
 Oleum (i) Helianthi - kukngaboqar yog'i  
 Ephedrinum, i, n - efedrin

**Quyidagi vitaminlarning nomini eslab qoling.**

A- Retinolum; Axerophtholum  
 B<sup>1</sup> -Thiaminum  
 B<sub>2</sub> - riboflavinum  
 B<sub>6</sub> - pyridoxinum  
 B<sub>12</sub>- cyanocobalaminum  
 C - Acidum ascorbinicum  
 D - calciferolum  
 E - Tocopherolum  
 H - Biotinum  
 R - Vicasolum  
 P - Rutinum  
 PP - acidum nicotinicum

**Retsepturada shartli qisqartmalar :**

Retseptda xilma-xil qisqartmalarni shifokorlar, hamshiralar qo'llashdi. Lekin dori moddasi qisqartirilib yozilmaydi.

| Qisqartma | To'liq nomi                 | Ma'nosi                                  |
|-----------|-----------------------------|------------------------------------------|
| Aa        | Ana                         | Teng                                     |
| Ac, acid  | Acidum                      | Kislota                                  |
| Aq. Best  | Aqua destillata             | Distillangan suv                         |
| Cort      | Cortex                      | P'ostloq                                 |
| Dec., dct | Decoctum                    | Damlama                                  |
| Dep.      | Depuratus, a, um            | Tozalangan                               |
| Dil.      | Dilutus                     | Suyultirilgan                            |
| D.S.      | Da. Signa (Detur. Signetur) | Bering.Belgilang (Berilsin. Belgilansin) |
| D.td      | Da (Dentur) tales doses     | Bering shunday dozalarni (Berilsin)      |
| Em. Emuls | Emulsum                     | Emulsiya                                 |
| Ext.      | Extractum                   | Ekstrakt                                 |
| Fl.       | Flos                        | Gul                                      |
| Fluid.    | Fluidus, a, um              | Suyuq                                    |